

**KORXONALARDA BOSHQARUV TASHKILIY TUZILMASINI  
TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

*Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich*

*NamMTI “Menejment va marketing” kafedrası dotsenti, i.f.n.*

*Ermатов Jamshidbek Adxamjonovich*

*NamMTI “Menejment va marketing” yo‘nalishi magistri*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada korxonalarda tashkiliy tuzilmaning mazmuni yoritib o‘tilgan. Shuningdek, tashkiliy tuzilmani shakllantirishdagi ayrim muammolar, tashkiliy tuzilmasini ishlab chiqish va takomillashtirishning asosiy bosqichlari bayon etilgan. Boshqaruv tuzilmasini samaradorligini oshirish uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** tashkilotni boshqarish tuzilishi, o‘zgartirish kiritish, almashtirish, takomillashtirishning asosiy bosqichlari, tashkiliy tuzilmani tahlil qilish komponentlari, tashkiliy tuzilmani loyihalash usullari, tashkiliy tuzilmani takomillashtirish yo‘llari.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается содержание организационной структуры на предприятиях. Также изложены некоторые проблемы формирования организационной структуры, основные этапы разработки и совершенствования организационной структуры. Разработаны рекомендации по повышению эффективности структуры управления.

**Ключевые слова:** структура управления организацией, внесение изменений, замена, основные этапы совершенствования, компоненты анализа организационной структуры, методы проектирования организационной структуры, пути совершенствования организационной структуры.

**Abstract:** This article examines the content of the organizational structure in enterprises. Some problems of the formation of the organizational structure, the main stages of the development and improvement of the organizational structure are also outlined. Recommendations have been developed to improve the effectiveness of the management structure.

**Keywords:** organization management structure, changes, replacement, main stages of improvement, components of organizational structure analysis, organizational structure design methods, ways to improve the organizational structure.

**Kirish.** Zamonaviy bozor sharoiti bozorda yangi kompaniyalar soni juda katta sur‘atlarda o‘sib borayotganligi bilan bog‘liq. Biroq, ko‘plab yangi ochilgan kompaniyalar xodimlar bilan ishlash, mahsulotni to‘g‘ri targ‘ib qilish va umuman kompaniyani qanday boshqarish haqida bilimlarning yetishmasligi sababli yopilib

ketmoqda. Asosiy sabablardan biri bu yangi boshlagan tadbirkorlar tashkiliy boshqaruv tuzilmalari va ularning bevosita loyihalash to'g'risidagi bilimga ega emasliklari, yangi-yangi loyihalarga ehtiyojni yuqoriligidir.

Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlari talab etayotgan mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha yangi-yangi loyihalar shakllantirish zarur.[1]

Boshqaruvning tashkiliy tuzilishi yoki tashkilotni boshqarish tuzilishi tashkilot va umuman boshqaruv nazariyasining asosiy kategoriyalaridan biridir. Bu ma'lum bir tashkilotning ichki tuzilishining ba'zi vizual modelini anglatadi. U elementlarning bo'ysunish tartibini, ularning o'zaro bog'liqligini aks ettiruvchi va korxonalar tuzilmasining boshqariladigan va boshqaruvchi qismlarining munosabatlarini namoyish etadigan korxonalar tarkibiy qismlari va ular o'rtasidagi aloqalar majmuasini o'z ichiga oladi.

Boshqaruvning tashkiliy tuzilishi menejerlar va boshqa rahbariyat faoliyati uchun juda muhimdir, chunki bu tashkilotdagi boshqaruv jarayonining o'zi va ba'zan uning maqsadlari va funktsiyalarini aks ettiruvchi menejerlar o'rtasida javobgarlikni taqsimlashning o'ziga xos xaritasi deyishimiz mumkin. Uning doirasida korxonaning hujjat aylanishi, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, shuningdek har qanday ma'lumotlarning harakati amalga oshiriladi. Korxonaning moslashuvchanligi va uning ishining samaradorligi ushbu aloqa tizimining qanchalik darajada optimalligi va samaradorligiga bog'liq. Ushbu jarayondagi masalalarni tadqiq etish mavzuning dolzarbligini ifodalaydi.

**Asosiy qism.** Tashqi muhitning uzluksiz o'zgaruvchanligi sharoitida raqobatbardoshlikni ta'minlash va qo'llab-quvvatlash zarurati tashkiliy tuzilmani takomillashtirishning komponentlari, usullari va yo'llarini belgilaydi. Mahalliy korxonalar keng ko'lamli tarkibiy qayta qurishni amalga oshiradilar, lekin ko'pincha tashkiliy tuzilmalar boshqaruv apparati tomonidan ilmiy tavsiyalarga emas, balki birinchi navbatda o'z manfaatlariga qaratilgan holda shakllantiriladi. Biroq, tashkiliy tuzilmaning takomillashtirilishi uni oqilona baholash natijasida amalga oshirilishini lozim deb biladi.

Zamonaviy tashkiliy tuzilmalar asosan tajriba mahsulidir. Ushbu sohadagi xorijiy tadqiqotlar bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining samarali faoliyat yuritish tajribasini aks ettiradi. Tashkiliy tuzilmalarni takomillashtirishning progressiv usullarini qo'llashga asoslangan samarali boshqaruv korxonalar samaradorligini oshishida asosiy vositaga aylanib boradi.[2]

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, g'arb adabiyotlarida "strukturani takomillashtirish" iborasi umuman qo'llanilmaydi. Lekin, tashkiliy tuzilmaga o'zgartirish kiritish va uni almashtirish - bu jahon amaliyotidagi doimiy jarayon bo'lib, har qanday tashkilotda menejer faoliyatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlardan

hisoblanadi. Bunday o‘zgarishlarning bosh omili - bu ilmiy-texnika taraqqiyoti va kuchli raqobatdir. AQSh, Yevropa va rivojlangan Sharq davlatlarining firmalarida boshqaruv strukturasi o‘rtacha har 3-5 yilda tashqi muhitga moslashtirib, o‘zgartirib yoki almashtirib turiladi.

Demak, boshqaruv faoliyatida har qanday jarayon tahlil qilinadi, loyihanadi, samaradorligini hisob-kitob qilinadi va kutilgan samarani bermasa takomillashtirish yo‘llari ishlab chiqiladi.

Shundan kelib chiqib, boshqaruv tashkiliy tuzilmasini ishlab chiqish va takomillashtirishning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat: tashkiliy tuzilmani tahlil qilish; tashkiliy tuzilmani loyihalash; tashkiliy tuzilmaning samaradorligini baholash va tashkiliy tuzilmani takomillashtirish.

**1-jadval**

**Boshqaruv tashkiliy tuzilmasini ishlab chiqish va takomillashtirishning asosiy bosqichlari**

<b>Tashkiliy tuzilmani tahlil qilish komponentlari</b>	<b>Tashkiliy tuzilmani loyihalash usullari</b>	<b>Tashkiliy tuzilmaning samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari</b>	<b>Tashkiliy tuzilmani takomillashtirish yo‘llari</b>
Boshqaruv tamoyillari	Anologik	Tashkiliy tuzilmadagi bo‘g‘inlar koeffitsiyenti	Tashkiliy tuzilmaga o‘zgartirish kiritish
Boshqaruv apparati	Ekspert	Tashkiliy tuzilmani hududiy konsentratsiya koeffitsiyenti	Tashkiliy tuzilmani almashtirish
Boshqaruv funksiyalari	Maqsadlarni tizimlashtirish	Tashkiliy tuzilma samaradorligi koeffitsiyenti	Tashkiliy tuzilmani tanlash
Xo‘jalik faoliyati	Tashkiliy modellashtirish	Boshqaruv samaradorligi koeffitsiyenti	Tashkiliy tuzilmani integratsiyalash

Yakuniy holda tashkilot boshqaruv tuzilmasini loyihalashtirishning barcha tadbirlari, tashkilot boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirishning muhim vositasi qatoriga kiradigan takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqishni taqazo etadi.[3]

Tashkiliy tuzilmani ishlab chiqishning zamonaviy amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, u ko‘p sohalarda oldingi davrlarga nisbatan sezilarli darajada yaxshilanib bormoqda. [4]

Bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat yurtish ko‘plab korxonalarni ortiqcha ish o‘rinlaridan voz kechishga, bitta xodimga bir nechta xodim vazifalarini birlashtirishga o‘tishga majbur qiladi va hokazo. Shu bilan birga, tashkiliy faoliyatning bir qator jihatlarini optimallashtirib bo‘lmaydi, ayrim hollarda esa ularning ba‘zilari hatto inqrozga uchraganini quyidagi asoslar tasdiqlaydi: formulyalarni to‘ldirish va hujjatlar aylanishi tartiblilikining yagona tizimini yo‘qligi; ishning aniq belgilangan

o‘ziga xos xususiyatlari va ularning funktsional maqsadini yo‘qligi sababli lavozim majburiyatlarining aniq taqsimlanmaganligi; turli bo‘limlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik va muvofiqlashtirishning yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi; bo‘limlar va aniq xodimlarning ishini nazorat qilishni puxta o‘ylangan tizimining mavjud emasligi.

Bularning barchasi, iste’molchilar tomonidan ba’zan mahsulot va xizmatlarning qoniqarsiz sifati uchun javobgar bo‘lgan shaxsni topa olmasligiga olib keladi.

### **Xulosa va tavsiyalar**

Umumiy xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, menejment fan sifatida korxonaning strategiyasini amalga oshirishga imkon beradigan, shuningdek korxonaning maqsad va vazifalarini bajarish uchun uning tashqi muhiti bilan aloqalarni optimallashtirishga imkon beradigan boshqaruv tuzilmasini yaratishning turli xil usullarini taklif etadi. Boshqaruv tuzilmasini loyihalashtirishdan asosiy maqsad – o‘zi tanlagan strategiyani amalga oshirish; korxonaga resurslarini eng oqilona tarzda taqsimlash, korxonaga o‘z maqsadlariga maksimal darajada erishish va tashqi muhit bilan o‘zaro aloqada bo‘lish imkonini beradigan boshqaruv tashkiliy tuzilmasini yaratishdir.

Korxonani tashkiliy tuzilmasini samaradorligini oshirib borish uchun uni tashqi muhitga moslashuvchanligi oshirish maqsadida takomillashtirib borish zarur. Boshqaruv tuzilmasini samaradorligini oshirish uchun quyidagilarni tavsiya etamiz: boshqaruvchilar sonini kamaytirish, mexanik tarzda tashkil etilgan strukturani ko‘nikma hosil qilingan struktura bilan almashtirish, yuqori darajadagi rasmiyatchilikka chek qo‘yish, mexanik tarzda tashkil etilgan tuzilma ichida turli shakllardagi uzviy strukturani tashkil qilish, maqbul o‘rinlarda tashkiliy tuzilmani integratsiyalash (yaxlitlash), raqamlashtirishdan keng foydalanish.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, korxonaga faoliyatining tashkiliy tuzilmasi ushbu jihatlarga diqqat bilan e’tibor qilishni talab etadi. Bunda tashkilot faoliyati shunday yo‘lga qo‘yilishi kerakki, tashkiliy jihatlar atrofdagi voqelikning o‘zgaruvchan talablariga muvofiq o‘zgartirilishi va korxonaning maqsad hamda vazifalariga moslashtirilishi lozim bo‘ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Шавкат Мирзиёев: Энди бу тармоқ қўшилган қиймат берадиган вақт келди. <https://president.uz/uz/lists/view/4262>
2. Dedajanov, B. N. (2022). Menejment. Darslik.–Toshkent.:“Fan ziyosi” nashriyoti, 580.
3. Kazakov O. S. Mehejment /O‘quv qo‘llanma /Kazakov Olim Sabirovich, Namangan: “Usmon Nosir media”,2022. – 256 b.
4. Горбашов И.А. Основные параметры и принципы проектирования организационных структур. ВКР. Краснодар. 2022. [https://www.kubsu.ru/sites/default/files/users/47178/portfolio/ofo\\_2\\_kurs\\_209\\_gruppa\\_me\\_kr\\_gorbashov\\_ilya\\_olegovich\\_.docx](https://www.kubsu.ru/sites/default/files/users/47178/portfolio/ofo_2_kurs_209_gruppa_me_kr_gorbashov_ilya_olegovich_.docx)